O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING QARORI

2024 - yil 6 - mart 135-11-0-Q/24 Farg‘ona viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-fevraldagi PQ-87-son qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-fevraldagi “Mamlakatimizda raqamlashtirish sohasidagi xizmatlar eksportini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-87-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-fevraldagi “Mamlakatimizda raqamlashtirish sohasidagi xizmatlar eksportini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-87-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilsin.

2. Raqamli texnologiyalar sohasida faoliyat yurituvchi korxonalarning jahon bozorlariga chiqish imkoniyatlarini yanada kengaytirish, raqamli texnologiyalarni qo‘llagan holda xizmatlar eksporti bilan shug‘ullanuvchi xorijiy kompaniyalarni mamlakatimizga keng jalb etish, sohada eksport hajmini oshirishga qaratilgan qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish, shuningdek, O‘zbekiston - 2030” strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida:

a) viloyatda IT-sanoatni rivojlantirish, aholini yuqori daromadli ish o‘rinlari va zamonaviy kasblar bilan ta’minlash, shuningdek, hududlarga IT-xizmatlar eksport qiluvchi korxonalarni keng jalb qilishga qaratilgan dasturni (Zero Risk)

(keyingi o‘rinlarda - Dastur) joriy etish;

b) mahalliy bozor uchun IT-xizmatlar ko‘rsatish sohasida faoliyat yurituvchi korxonalarni xalqaro IT-bozorga olib chiqish, ularning eksport faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha loyihani (Local to Global) (keyingi o‘rinlarda — Loyiha) amalga oshirish;

3. Dasturda ishtirok etuvchi korxonalarga;

a) IT-parkning tavsiyanomasiga asosan bo‘sh turgan davlat ko‘chmas mulk obyektlari, Raqamli texnologiyalar vazirligi tizimidagi tashkilotlar hamda IT-park filiallarining davlat mulki bo‘lgan bo‘sh binolari va maydonlari (xonalari) bir yilgacha muddatga tekin foydalanish huquqi asosida beriladi.

Bunda:

shahar (tuman) hokimliklari va Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi (A.Saliyev) bilan birgalikda bo‘sh turgan davlat ko‘chmas mulk obyektlarining har chorakda yangilab boriladigan ro‘yxatini Raqamli texnologiyalar vazirligi Farg‘ona viloyati hududiy sho‘basiga taqdim etadi;

Raqamli texnologiyalar vazirligi Farg‘ona viloyati hududiy sho‘basi tomonidan zaruratga ko‘ra dasturda ishtirok etuvchi korxonalar ro‘yxati va ularni bo‘sh turgan davlat ko‘chmas mulk obyektlariga bir yilgacha muddatga tekin foydalanish huquqi asosida tegishli maydonlardan samarali foydalanishni inobatga olgan holda joylashtiriladi;

bir yil muddat tugagandan so‘ng dasturda ishtirok etuvchi korxonalar bilan ularga tekin foydalanish huquqini asosida berilgan bino va maydonlar (xonalar) yuzasidan “E-auksion” elektron savdo platformasida bir metr kvadrat maydon uchun tegishli hudud bo‘yicha shakllangan o‘rtacha ijara haqqi miqdori to‘g‘risida shartnoma tuziladi;

b) IT-park tomonidan xarid qilingan yangi kompyuter, boshqa texnika va jihozlar bir yilgacha muddatga tekin foydalanish huquqi asosida, keyinchalik ular 3 oylik davrda foizsiz bo‘lib (xarid qilish) sharti bilan taqdim etiladi;

v) ish haqqi xarajatlari mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi xodimlari soniga mutanosib ravishda bir yil muddatda 15 foizgacha miqdorda qoplab beriladi;

g) inson resurslarini rivojlantirish yo‘nalishida bir kalendar yil davomida bitta korxonaning quyidagi xarajatlari qoplab beriladi:

ishlab chiqarish hamda boshqaruv xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish (shu jumladan, xorijiy mutaxassislarni jalb qilish orqali) bilan bog‘liq xarajatlarning 50 foizgacha, lekin bazaviy hisoblash miqdorining 200 barobaridan ko‘p bo‘lmagan qismi;

ishga qabul qilish uchun malakali mutaxassislarni aniqlash bo‘yicha xizmatlar xarajatlarining (mutaxassislar soniga mos ravishda) 50 foizgacha, biroq bazaviy hisoblash miqdorining 20 barobaridan ko‘p bo‘lmagan qismi.

4. Belgilansinki, Dasturda quyidagi talablardan biriga mos keluvchi IT-park rezidenti maqomiga ega bo‘lgan tashkilotlar ishtirok etadi:

umumiy xizmatlar hajmida xizmatlar eksporti ulushi mahalliy bozor uchun ko‘rsatilgan xizmatlar hajmiga nisbatan yuqori bo‘lgan tashkilotlar;

amalda 500 ming AQSh dollari va undan yuqori bo‘lgan ekvivalentdagi eksport shartnomasiga ega bo‘lgan tashkilotlar;

yillik aylanmasi miqdori 1 million AQSh dollari ekvivalenti va undan yuqori bo‘lgan xorijiy kompaniya ta’sischiligida tashkil etilgan yangi tashkilotlar.

5. Loyiha doirasida IT-park rezidenti bo‘lgan tashkilotlarga:

a) eksport rejasini ishlab chiqish, istiqbolli xorijiy bozorlarni aniqlash va ularga chiqish talablarini o‘rgatish, mijozlarni topish, ular bilan muzokaralar olib borish, eksport hujjatlarini rasmiylashtirish, xizmatlar realizatsiyasidan keyingi bosqichdagi qo‘llab-quvvatlash jarayonlarini tashkil etish yo‘nalishlarida IT-park tomonidan bepul maslahat (eksport mentoring) xizmatlari ko‘rsatiladi;

b) jahon bozoriga chiqish yo‘nalishidagi xarajatlarning 50 foizgacha qismi quyidagi chegaralangan miqdorlarda qoplab beriladi:

xorijiy ekspert maslahat xizmatlari uchun 10 ming AQSh dollari ekvivalentigacha;

xalqaro ko‘rgazma va konferensiyalarda ishtirok etish uchun 5 ming AQSh dollari ekvivalentigacha;

xorijiy hamkorlar bilan biznes muzokaralar o‘tkazish maqsadida ularning mamlakatimizga tashrifini tashkil etish uchun amalda eksport qilgan xizmatlari

hajmiga mos ravishda 1-ilovaga muvofiq 20 ming AQSh dollari ekvivalentigacha;

xorijiy mamlakatlarga xizmat safari (transport va mehmonxona xarajatlari) uchun 5 ming AQSH dollari ekvivalentigacha;

v) umumiy xodimlari sonining ko‘pi bilan 50 foizi, lekin bir nafar xodim uchun bir kalendar yilida bir marotaba ro‘yxati Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan nufuzli xalqaro platformalar va ta’lim yo‘nalishlarida xarajatlarining yarmi qoplab beriladi;

g) xodimlar malakasini oshirish maqsadida “Bir million dasturchi” loyihasi doirasidagi nufuzli xalqaro ta’lim platformalarining eksport yo‘nalishida talab yuqori bo‘lgan onlayn o‘quv kurslarida bepul o‘qish imkoniyati ta’minlanadi.

6. Belgilab qo‘yilsinki, loyiha doirasida IT-sohasida faoliyat ko‘rsatuvchi korxonalarni jahon bozoriga olib chiqishga qaratilgan har bir yo‘nalish bo‘yicha xarajatlar bir kalendar yilida faqat bir marotaba qoplab beriladi.

7. Shahar va tuman hokimliklarining 2024-yil uchun raqamlashtirish sohasidagi xizmatlar eksporti bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlarni 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

8. Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari X.Sirojitdinov, Raqamli texnologiyalar vazirligi Farg‘ona viloyati hududiy sho‘basi (Y.Gafurov), Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki Farg‘ona viloyati filiali (B.Djalilov) hamda shahar va tuman hokimlari raqamlashtirish sohasidagi xizmatlar eksporti bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish uchun shaxsan mas’ul va javobgar etib belgilansin.

9. Dastur va loyiha doirasidagi arizalarni ko‘rib chiqish va korxonalarning belgilangan mezonlarga muvofiqligini aniqlash, shuningdek, qo‘llab-quvvatlash choralari doirasini belgilash hamda tatbiq etish jarayonlari IT-parkning maxsus axborot tizimi orqali bepul amalga oshiriladi.

10. Ushbu qaror ijrosini muhokama qilib borish, mas’ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish vazifasi viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari X.Sirojitdinov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi **X. Bozarov**

Farg‘ona viloyat hokimining
2024-yil 6-martdagi
135-11-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Loyiha (Local to Global) doirasida xorijiy hamkorlar bilan biznes muzokaralar o‘tkazish maqsadida ularning mamlakatimizga tashrifini tashkil etish bo‘yicha IT-park rezidenti bo‘lgan tashkilotlarning 50 foizgacha xarajatlarini qoplash MIQDORLARI

№	Loyiha doirasida ishtirok etadigan IT-Park rezidentining amalda eksport qilgan xizmatlari hajmi	Qoplab beriladigan xarajatlar miqdori
1.	200 ming AQSh dollari va undan yuqori ekvivalentda	20 ming AQSh dollari ekvivalentida
2.	150 ming AQSh dollaridan 200 ming AQSh dollarigacha ekvivalentda	15 ming AQSh dollari ekvivalentida
3.	100 ming AQSh dollaridan 150 ming AQSh dollarigacha ekvivalentda	10 ming AQSh dollari ekvivalentida
4.	50 ming AQSh dollaridan 100 ming AQSh dollarigacha ekvivalentda	5 ming AQSh dollari ekvivalentida

Farg‘ona viloyat hokimining
2024-yil 6-martdagi
135-11-0-Q/24-son qaroriga
2-ilova

2024-yilda Farg‘ona viloyatida raqamlashtirish sohasidagi xizmatlar ko‘rsatishni rivojlantirishning

MAQSADLI KO‘RSATKICHLARI

№	Tuman (shahar) nomi	2024-yilda IT xizmatlar eksporti rejasi *(ming dollar)*	Shundan choraklar kesimida *(ming.dollarda)*				Ingliz tilida o‘qitiladigan mutaxassislar soni *(So‘zlashuv bo‘yicha S1 darajasida)*	Nemis va boshqa tillarga o‘qitiladigan mutaxassislar soni *(V2 darajasida)*
			I chorak	II chorak	III chorak	IV chorak		
1	Farg‘ona shahar	6 000	1200	1800	1800	1200	432	120
2	Qo‘qon shahar	2 000	400	600	600	400	617	150
3	Marg‘ilon shahar	2 000	400	600	600	400	452	116
4	Quvasoy shahar	1 000	200	300	300	200	248	65
5	Beshariq tumani	700	140	210	210	140	421	107
6	Bog‘dod tumani	700	140	210	210	140	472	118
7	Buvayda tumani	700	140	210	210	140	445	110
8	Dang‘ara tumani	600	120	180	180	120	320	81
9	Yozyovon tumani	500	100	150	150	100	264	66
10	Quva tumani	700	140	210	210	140	350	67
11	Qo‘shtepa tumani	500	100	150	150	100	281	75
12	Oltiariq tumani	700	140	210	210	140	469	120
13	Rishton tumani	600	120	180	180	120	568	134
14	So‘x tumani	200	40	60	60	40	180	19
15	Toshloq tumani	700	140	210	210	140	411	102
16	O‘zbekiston tumani	700	140	210	210	140	562	142
17	Uchko‘prik tumani	700	140	210	210	140	416	104

18	Farg‘ona tumani	600	120	180	180	120	584	146
19	Furqat tumani	400	80	120	120	80	230	75
Jami:		**20 000**	**4000**	**6000**	**6000**	**4000**	**7722**	**1917**